XALQ DEPUTATLARI OQOLTIN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

Yangi davr MFY Beg‘ubor ko‘chasi 2-uy +998 67 243 1001 oqoltin.t@exat.uz

2024-yil 31-iyul VI-106-92-9-122-K/24 Oqoltin tumani

Oqoltin tumanidagi ayrim ko‘chalarning takrorlangan nomlarini o‘zgartirish va yangi nom berish to‘g‘risida

Oqoltin tumani mahalla fuqarolar yig‘inlari tomonidan mahallalardagi mavjud ko‘chalarning nomlari qonunchilik hujjatlariga nomuvofiqligi sababli qayta nomlash, bir-birini takrorlovchi ko‘cha nomlarini o‘zgartirish hamda nomsiz ko‘chalarga yangi nom berish to‘g‘risida tushgan takliflari ko‘rib chiqildi va mazkur takliflar atroflicha muhokama qilinib, ko‘chalarni qayta nomlash hamda tumandagi nomsiz ko‘chalarga berilgan yangi nomlarni tasdiqlash to‘g‘risida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024-yil 12-iyundagi 05/08-5736-sonli va 2024-yil 3-iyuldagi 03/08-6429-sonli xatida bayon qilingan ekspert xulosalarini hamda O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlarini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 295-sonli qarorini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunning 6, 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Oqoltin tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Oqoltin tumani hududidagi bir-birini takrorlovchi ko‘cha nomlarini o‘zgartirish hamda nomsiz ko‘chalarga yangi nom berish bo‘yicha Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasi (keyingi o‘rinlarda Ekspert komissiya deb ataladi) xulosalari hamda tuman hokimligining 2024-yil 8-iyuldagi 06-04/04-1431-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ekspert komissiyasining Oqoltin tumani mahallalardagi mavjud ko‘chalarning nomlari O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi 303-sonli qonun hujjatlariga nomuvofiqligi sababli qayta nomlash, bir-birini takrorlovchi ko‘cha nomlarini o‘zgartirish hamda nomsiz ko‘chalarga nom berish bo‘yicha takliflari ma’qullansin.

3. Oqoltin tumanida yangi nom berilgan ko‘chalar ro‘yxati 1-ilovaga, mahallalarning sxematik xaritalari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman statistika bo‘limi (B.Pardayev), Davlat kadastrlari palatasi Sirdaryo viloyati boshqarmasining Oqoltin tumani filiali (N.Ismoilov), tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (B.Juraqulov) hamda tegishli mutasaddi va davlat organlariga amaldagi tartibda nom berilgan va nomlari o‘zgartirilgan ko‘chalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazasini shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

5. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (X.Djavlonov) nom berilgan va nomlari o‘zgartirilgan hududlarda aholining fuqarolik pasportlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

6. Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish bo‘yicha tuman komissiyasiga nom berilgan va nomi o‘zgartirilgan ko‘chalarga ularning nomlari yozilgan metall ko‘rsatgich va belgilar, peshlavhalar bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

7. O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo‘limi (A.Kukanbayev), mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari hamda xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlariga hududlardagi yangi nom berilgan ko‘chalarga chiqqan holda aholi o‘rtasida tushuntirish ishlari olib borish tavsiya etilsin.

8. Tuman hokimligi axborot xizmati (B.Yusupov) va “Oqoltin ovozi” gazetasi (M.Pardayeva)ga ushbu qarorning ijtimoiy tarmoqda hamda gazeta sahifasida yoritilishi tavsiya etilsin.

9. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (B.Yusupov)ga va qaror ijrosini ta’minlash geografik ob’ektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi (A.Xaydarov) zimmasiga yuklatilsin.

10. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



ERNAZAROV
KOMILJON
YULDASHALIYEVICH

Xalq deputatlari Oqoltin tumani
Kengashining
2024-yil 31-iyuldagi
VI-106-92-9-122-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Geografik obektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi tomonidan tumandagi ko‘chalarga berilgan nomlar
RO‘YXATI

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Geografik obyektning yangi nomi
1.	Tor ko‘cha	Alisher Navoiy mahallasi	Nomsiz	Tadbirkorlar 1-tor
2.	Tor ko‘cha	Alisher Navoiy mahallasi	Nomsiz	Tadbirkorlar 2-tor
3.	Tor ko‘cha	Alisher Navoiy mahallasi	Nomsiz	Tadbirkorlar 3-tor
4.	Tor ko‘cha	Shodlik mahallasi	Nomsiz	Ishonch 2-tor
5.	Tor ko‘cha	Shodlik mahallasi	Nomsiz	Yoshlik 1-tor
6.	Tor ko‘cha	Shodlik mahallasi	Nomsiz	Zarbdor tor
7.	Tor ko‘cha	Shodlik mahallasi	Nomsiz	Nastarin 1-tor
8.	Tor ko‘cha	Shodlik mahallasi	Nomsiz	Saxovat
9.	Tor ko‘cha	Ko‘rkam diyor mahallasi	Nomsiz	Elobod tor
10.	Tor ko‘cha	Ko‘rkam diyor mahallasi	Nomsiz	Mirbozor
11.	Ko‘cha	Ko‘rkam diyor mahallasi	Nomsiz	So‘limgo‘sha
12.	Tor ko‘cha	Ahillik mahallasi	Nomsiz	Sarbon
13.	Tor ko‘cha	Bo‘ston mahallasi	Nomsiz	Baxmal 1-tor
14.	Tor ko‘cha	Bo‘ston mahallasi	Nomsiz	Jaloliddin Manguberdi 1-tor
15.	Berk ko‘cha	Bo‘ston mahallasi	Nomsiz	Osiyo 2-berk
16.	Tor ko‘cha	Bo‘ston mahallasi	Nomsiz	Al-Buxoriy 1-tor
17.	Berk ko‘cha	Bo‘ston mahallasi	Nomsiz	Al-Xorazmiy berk
18.	Berk ko‘cha	Bo‘ston mahallasi	Nomsiz	Baxmal berk
19.	Berk ko‘cha	Bo‘ston mahallasi	Nomsiz	Bog‘ieram 2-berk
20.	Tor ko‘cha	Bo‘ston mahallasi	Nomsiz	Bog‘ieram 2-tor
21.	Tor ko‘cha	Bo‘ston mahallasi	Alpomish-1	Alpomish 1-tor
22.	Tor ko‘cha	Bo‘ston mahallasi	Alpomish-2	Alpomish 2-tor
23.	Tor ko‘cha	Bo‘ston mahallasi	Nomsiz	Saodat
24.	Tor ko‘cha	Obod mahallasi	Bog‘-1 berk	Bog‘ 1-tor
25.	Tor ko‘cha	Obod mahallasi	Bog‘-2 aylanma	Bog‘ 2-tor
26.	Tor ko‘cha	Obod mahallasi	Bog‘-3 berk	Bog‘ 3-tor
27.	Tor ko‘cha	Obod mahallasi	Nomsiz	Xalqobod 1-tor
28.	Tor ko‘cha	Obod mahallasi	Nomsiz	Xalqobod 2-tor
29.	Tor ko‘cha	Obod mahallasi	Nomsiz	Yurtsevar 1-tor

30.	Tor ko‘cha	Obod mahallasi	Nomsiz	Yurtsevar 2-tor
31.	Tor ko‘cha	Obod mahallasi	Nomsiz	Yurtsevar 3-tor
32.	Tor ko‘cha	Obod mahallasi	Nomsiz	Yurtsevar 4-tor
33.	Tor ko‘cha	Obod mahallasi	Nomsiz	Yurtsevar 5-tor
34.	Ko‘cha	Obod mahallasi	Nomsiz	Ko‘hnadiyor
35.	Tor ko‘cha	Obod mahallasi	Nomsiz	Ko‘hnadiyor 1-tor
36.	Tor ko‘cha	Obod mahallasi	Nomsiz	Ko‘hnadiyor 2-tor
37.	Tor ko‘cha	Obod mahallasi	Nomsiz	Ko‘hnadiyor 3-tor
38.	Tor ko‘cha	Obod mahallasi	Nomsiz	Ko‘hnadiyor 4-tor
39.	Tor ko‘cha	Obod mahallasi	Nomsiz	Ko‘hnadiyor 5-tor
40.	Tor ko‘cha	Obod mahallasi	Nomsiz	Ko‘hnadiyor 6-tor
41.	Ko‘cha	Obod mahallasi	Nomsiz	Sayqal
42.	Berk ko‘cha	Mustaqillik, Obod mahallalari	Nomsiz	Xalqobod berk
43.	Berk ko‘cha	Toshkent mahallasi	Ko‘kaldosh-1	Ko‘kaldosh 1-berk
44.	Berk ko‘cha	Toshkent mahallasi	Ko‘kaldosh-2	Ko‘kaldosh 2-berk
45.	Berk ko‘cha	Toshkent mahallasi	Ko‘kaldosh-3	Ko‘kaldosh 3-berk
46.	Berk ko‘cha	Toshkent mahallasi	Ko‘kaldosh-4	Ko‘kaldosh 4-berk
47.	Berk ko‘cha	Toshkent mahallasi	Ko‘kaldosh-5	Ko‘kaldosh 5-berk
48.	Berk ko‘cha	Toshkent mahallasi	Orom-1	Orom
49.	Ko‘cha	Toshkent mahallasi	Nomsiz	Nufuzli
50.	Tor ko‘cha	Toshkent mahallasi	Nomsiz	Nufuzli 1-tor
51.	Tor ko‘cha	Toshkent mahallasi	Nomsiz	Nufuzli 2-tor
52.	Tor ko‘cha	Toshkent mahallasi	Nomsiz	Nufuzli 3-tor
53.	Tor ko‘cha	Toshkent mahallasi	Nomsiz	Nufuzli 4-tor
54.	Berk ko‘cha	Yangi davr mahallasi	Nomsiz	Beg‘ubor berk
55.	Berk ko‘cha	Yangi Toshkent mahallasi	Nomsiz	Sirg‘ali berk
56.	Tor ko‘cha	Yangi Toshkent mahallasi	Nomsiz	Sirg‘ali tor
57.	Tor ko‘cha	Yangi Toshkent mahallasi	Nomsiz	Uchtepa tor
58.	Ko‘cha	Yangi Toshkent mahallasi	Nomsiz	Bog‘ichinor
59.	Ko‘cha	Yangi Toshkent mahallasi	Nomsiz	Shafoat
60.	Ko‘cha	Andijon mahallasi	Nomsiz	Sarkor
61.	Ko‘cha	Andijon mahallasi	Nomsiz	Mohitobon
62.	Tor ko‘cha	Andijon mahallasi	Nomsiz	Istiqlol 1-tor
63.	Tor ko‘cha	Andijon mahallasi	Nomsiz	Istiqlol 2-tor
64.	Tor ko‘cha	Andijon mahallasi	Nomsiz	Vatan o‘g‘loni 1-tor
65.	Tor ko‘cha	Andijon mahallasi	Nomsiz	Vatan o‘g‘loni 2-tor

Xalq deputatlari Oqoltin tumani
Kengashining
2024-yil 31-iyuldagi
VI-106-92-9-122-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Oqoltin tumani hududidagi mahallalarning sxematik

XARITALARI

A.Navoiy MFY



Saxovat MFY



Shodlik MFY



Ko‘rkam diyor MFY



Axillik MFY




Bo‘ston MFY




Obod MFY



Yangi hayot MFY



Toshkent MFY



Mustaqillik MFY



Yangi davr MFY



Yangi Toshkent MFY



Andijon MFY

